

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BOTANIKA INSTITUTI**

**HABIBULLAYEV BEHRUZ SHERBOYEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA *MOLUCCELLA* L. (LAMIACEAE) TURKUMI  
KAMYOB TURLARI POPULYATSIYALARINING ZAMONAVIY  
HOLATI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctorof philosophy (PhD)**

**Habibullayev Behruz Sherboyevich**

О‘zbekistonda *Moluccella* L. (Lamiaceae) turkumi kamyob turlari  
populyatsiyalarining zamonaviy holati..... 3

**Хабибуллаев Бехруз Шербоевич**

Современное состояние популяций редких видов рода  
*Moluccella* L. (Lamiaceae) в Узбекистане ..... 19

**Khabibullaev Bekhruz Sherboevich**

Current state of populations of rare species of the genus  
*Moluccella* L. (Lamiaceae) in Uzbekistan..... 37

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 41

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BOTANIKA INSTITUTI**

**HABIBULLAYEV BEHRUZ SHERBOYEVICH**

**O‘ZBEKISTONDA *MOLUCCELLA* L. (LAMIACEAE) TURKUMI  
KAMYOB TURLARI POPULYATSIYALARINING ZAMONAVIY  
HOLATI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/B438 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Shomurodov Xabibullo Fayzulloyevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xasanov Furqat Orunbayevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Nigmatullayev Alimjon Magmurovich**  
biologiya fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "5" may kuni soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (51-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "17" aprel kuni tarqatildi.  
(2023 yil "17" aprel 2-raqamli reyestr bayonnomasi).



**K.Sh. Tojibayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

**U.H. Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

**F.I. Karimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., yetakchi ilmiy xodim

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish muammosi tabiiy ekotizimlarga antropogen ta'sirning kuchayishi kontekstida yanada dolzarblashib bormoqda. Inson faoliyati natijalari sayyoramizning har bir nuqtasida biologik xilma-xillikning barcha komponentlariga, shu jumladan o'simliklar dunyosiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning natijasida yuzlab turlar, o'simlik jamoalari va ularning makonlari muhofazaga muhtoj bo'lib bormoqda. 2014 yilda 19 mingdan ortiq o'simlik turi xalqaro Qizil ro'yxatga kiritilgan bo'lsa, 2022 yilga kelib xavf ostidagi turlarning soni 60 mingdan oshib ketdi. Shu o'rinda, kamyob turlar va ularning zaif populyatsiyalari holatini baholash, transformatsion va ingibrllovchi omillarni asoslash hamda ularni bartaraf etish aspektlarini yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ekotizimlardagi o'zgarishlar ko'lamini aniqlash, mavjud va kutilayotgan xavf darajalarini baholash hamda populyatsiyalar muhofazasining strategiyalarini ishlab chiqish o'simlik senotik populyatsiyalari holatini baholash orqali amalga oshirilmoqda. Buning uchun turlarning fitosenozlardagi o'rnini va senotik populyatsiyalarining ontogenetik strukturasi va tiplarini tahlil qilish, organizm va populyatsiya belgilarining tahlili asosida tadqiqot obyektlarining ekologik optimumini aniqlash, senopopulyatsiyalarning vitalitet holati asnosida xavotirli indikatorlarni ko'rsatish orqali maqbul muhofaza chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

*Moluccella* L. turkumining O'zbekistonda 4 turi tarqalgan bo'lib, ulardan 3 tasi (*Moluccella bucharica*, *M.fedtschenkoana*, *M.sogdiana*) janubi-g'arbiy Pomir-Oloy pasttog'liklarining endemlari hisoblanadi. Antropogen omillarning kuchayishi oqibatida *Moluccella* turkumi kamyob turlarining populyatsiyalari qisqarib bormoqda.

So'ngi yillarda respublikamizda xalqaro tamoyillar asosida mavjud o'simlik resurslaridan oqilona foydalanish va ularni saqlab qolishga qaratilgan muhim amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan dasturiy chora-tadbirlar natijasida muayyan yutuqlarga erishildi, jumladan, O'zbekiston BMT ning "Biologik xilma-xillik to'g'risida" gi Konvensiyasiga qo'shildi, o'zining 2019-2028 yillarga mo'ljallangan biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy strategiyasini ishlab chiqdi, tanazzulga uchragan ekotizimlarni hamda kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarni tiklash chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> «...atrof-tabiiy muhitga zarar yetkazuvchi ekologik myammolarning oldini olish» vazifalari belgilab berilgan. Ushbu belgilangan vazifalarning muayyan ijrosi sifatida antropogen ta'sir yuqori bo'lgan hududlarda o'sadigan *Moluccella* turkumi kamyob turlari senopopulyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash, ularga ta'sir etayotgan omillarni aniqlash va ushbu omillarni yumshatish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish, potensial tarqalish hududlarini modellashtirish, populyatsiyalarini xalqaro talablarga muvofiq muhofaza qilish, *ex-situ* sharoitida

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

saqlash usullarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 dekabrda 1034-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va 2019 yil 11 iyundagi 484-son “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishida mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Fitosenozlar va ular tarkibidagi ayrim turlar populyatsiyalarining holatini baholash va tahlil qilish, o‘simliklarni turli sharoitlarda (*in situ* va *ex-situ*) saqlash usullarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar D.I. Jarvis & al. (2000), L.N. Joppa & al. (2011), V.L. Williams & al. (2013), I. Braverman (2014), S. Volis & al. (2010, 2015), R.T. Corlett (2016), G. Klimenko & al. (2017) ishlarida; o‘simliklar senopopulyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash va ularning ontogenetik strukturalarini tadqiq qilishga oid tadqiqotlar B.A. Cheremushkina, A.Y. Astashenkov (2009, 2014), Sh.U. Saribaeva (2009), Y.B. Kolegova (2010, 2011, 2012), T.V. Leonova (2011), E.M. Oleynikova (2010, 2014, 2015), I.H. Barsaukova (2016), X.F. Shomurodov va boshq. (2017), O.S. Abduraimov (2017), A.Q. Axmedov (2018) va boshqalarning tadqiqotlarida batafsil keltirilgan.

Turlarning potensial tarqalish areallarini iqlim parametrlari asosida bioiqlimiy modellashtirish borasidagi tadqiqotlar Phillips & al. (2006, 2008), S.J. J. Elith va J.R. Leathwick (2009), K.Sh. Tojibaev & al. (2019), M. Abdelal & al. (2019) Keane & al. (2020), B.A. Adilov (2022) va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Kamyob turlarni muhofaza qilish, ularni xalqaro Qizil ro‘yxat talablari doirasida baholash S. Orsenigo (2016, 2018, 2020), J. Fenu (2017, 2019, 2022), K. Omar (2017), F.O. Xasanov (2019), N.Yu. Beshko (2022) va boshqalarning tadqiqotlarida qayd etilgan.

O‘zbekistondagi *Moluccella* turkumining kamyob turlari va ularning fitotsenotik tavsiflari S.N. Kudryashev (1939), A.I. Vvedenskiy (1962), K.Z. Zakirov (1976) I.V. Belolipov (1977, 1980), A.M. Maxmedov (1990), F.O. Xasanov (1991, 2019), K.Sh. Tojibaev (2010, 2019), O.T. Turginov (2017) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Shunga qaramay, *Moluccella* turkumi kamyob turlari populyatsiyalarining zamonaviy holatini turlarning senopopulyatsiyalari ko‘rsatkichlari asosida baholashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmagan.

Shu sababli, O‘zbekistonda tarqalgan *Moluccella* turkumi kamyob turlari senopopulyatsiyalarining ontogenetik strukturasi va tiplarini aniqlash, vitalitet holati, shuningdek organizm va populyatsion belgilari asosida ularning zamonaviy holatini baholash, turlarning tarqalish ma‘lumotlari va bioiqlim o‘zgaruvchilarining o‘zaro

kombinatsiyalari orqali potensial tarqalish areallarini turli davrlar kesimida modellashtirish, turlarga xavf solayotgan omillarni asoslash va muhofaza chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Botanika institutining respublika florasining milliy axborot-tahliliy ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va yuritish, yovvoyi o'simliklarning kamyob va yo'qolish xavfi ostida bo'lgan turlari bo'yicha davlat kadastri hamda O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi va o'simlik dunyosi monitoringini yuritish ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda tarqalgan *Moluccella* turkumi turlari populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash hamda muhofaza chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekistonda tarqalgan *Moluccella* turkumi kamyob turlarining ekologik - fitotsenotik xususiyatlarini aniqlash;

o'rganilgan turlar senopopulyatsiyalarining ontogenetik strukturasi va tiplarini aniqlash;

organizm va populyatsion belgilar asosida senopopulyatsiyalarning zamonaviy holatini baholash;

*Moluccella* turkumi turlari tarqalgan lokalitetlarda iqlim parametrlaridagi o'zgarishlarni aniqlash va turlarning potensial tarqalish maydonlarini bioiqlimiy modellashtirish;

*M.bucharica* va *M.fedtschenkoana* turlari senotik populyatsiyalarining tarqalish xaritalarini tuzish;

tadqiqot obyektlari populyatsiyalarining zamonaviy holatini Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqining (TMQXI) Qizil ro'yxati mezonlari asosida baholash;

*M.bucharica* va *M.fedtschenkoana* populyatsiyalarini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekistonda tarqalgan *Moluccella* L. turkumining kamyob va endem turlari: *Moluccella bucharica* (B. Fedtsch.) Ryding va *Moluccella fedtschenkoana* (Kudr.) Ryding hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** *Moluccella* turkumi kamyob turlarining turli ekofitotsenotik sharoitlarda tarqalgan senopopulyatsiyalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada fitosenotik, statistik, TMQXI (IUCN) ning global baholash, bioiqlimiy modellashtirish va xaritalash metodlaridan foydalanilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor janubiy O'zbekistonning turli fitosenozlarida tarqalgan *Moluccella* L. turkumi kamyob turlarining 12 senotik populyatsiyalari (*M. bucharica* turining 3, *M.fedtschenkoana* turining 9 senopopulyatsiyalari) aniqlangan;

*M.bucharica* turining Navbuloq va *M.fedtschenkoana* turining Langar populyatsiyalari birinchi marta aniqlangan;

tadqiqot obyektlari senopopulyatsiyalarining ontogenetik strukturalari va tiplari ochib berilgan;

organizm va populyatsion belgilari asosida senopopulyatsiyalarning vitalitet

holati baholangan;

turlarning tarqalish ma'lumotlari va bioiqlim o'zgaruvchilarining o'zaro kombinatsiyalari orqali potensial tarqalish areallari turli davrlar kesimida modellashtirilgan;

turlar senopopulyatsiyalarining tarqalishi va iqlim senariylari asosida yaratilgan modellarning zamonaviy xaritalari tuzilgan;

kamyob turlar populyatsiyalarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan;

tadqiqot obyektlari populyatsiyalarining zamonaviy holati Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqining (TMQXI) Qizil ro'yxati mezonlari asosida baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*M.bucharica* turining Sho'rob senopopulyatsiyasida (Boysun tumani) o'simlik zararkunandalariga qarshi amaliy kurash tadbirlari muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Natijada o'rtacha o'simlik urug'larining hasharotlar tomonidan zararlanishi 55,3% kamaygan;

*Moluccella* L. turkumi kamyob turlari senopopulyatsiyalarining tarqalish xaritalari, populyatsiyalar tarkibi va holatining aniq statistik ma'lumotlari, xavf darajalari va ularning xavotirli indikatorlari haqidagi kompleks ma'lumotlar o'simliklarni muhofaza qilish faoliyatida qo'llanilgan va *M.fedtschenkoana* (Kudr.) Ryding turini O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobining navbatdagi nashriga 2-maqom bilan kiritish uchun tavsiya berilgan;

*M.bucharica* turini *ex-situ* sharoitida turli stimulyatorlar yordamida qalamchalardan ko'paytirish texnologiyasi yaratilgan. *Ex-situ* sharoitida tayyorlangan ko'chatlar Sho'rob senopopulyatsiyasining xavf darajasi past maydoniga ko'chirilgan;

*M.bucharica* turi xalqaro Qizil ro'yxatga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada qo'llanilgan zamonaviy usullar va ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqotlar davomida yig'ilgan gerbariy namunalarning Milliy gerbariyda (TASH) saqlanayotganligi, olingan natijalar va xulosalarning asoslanganligi, natijalarni tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari faoliyatiga joriy qilinganligi, dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalarini tegishli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda tarqalgan *Moluccella* turkumi kamyob turlari senopopulyatsiyalari zamonaviy holatining baholanganligi, turlarning ontogenetik strukturalari va tiplari tavsiflanganligi, turli iqlim stsenariylari asosida tarqalish maydonlarining bioiqlimiy modellashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, o'rganilgan turlar populyatsiyalarining zamonaviy holati TMQXI mezonlari asosida baholangan, turlar senotik populyatsiyalari strukturalarining tuzilishi va vitalitet holati va ularning tarqalish haritalari to'g'risidagi ma'lumotlar *Moluccella* turkumi kamyob turlari populyatsiyalari holatini uzoq muddatli monitoring qilishda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi, *M.bucharica* turini *ex-situ* sharoitida ko'paytirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari populyatsiya tarkibini to'ldirishga xizmat qiladi, o'rganilgan turlar populyatsiyalarining tarkibi haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi «Qizil



kitobi»ning navbatdagi nashrlarini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonda tarqalgan *Moluccella* L. turkumi kamyob turlari populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*Moluccella* turkumi kamyob turlariga oid 12 ta senopopulyatsiyalarning holati haqidagi ma'lumotlar (shu jumladan turlarning 5 ta yangi o'sish hududlari), turlar populyatsiyalarining vitalitet holatlari, turlarni *ex-situ* sharoitlarida saqlab qolish hamda muhofaza qilish bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari boshqarmasi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining 2023 yil 17 fevraldagi 03-02/7-446-sonli ma'lumotnomasi). Natijada xavf va taxdid ostida bo'lgan senopopulyatsiyalarning joylashuv maydonlarini aniqlash, kamyob va zaif turlarni O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish imkonini bergan;

Janubi-g'arbiy Pomir-Oloy endemi *Moluccella bucharica* IUCN global baholash mezonlari asosida baholanib, Tabiatni Muhofaza Qilish Xalqaro Ittifoqining Qizil ro'yxatiga butunlay yo'q bo'lib ketish arafasidagi (CR) tur maqomi bilan rasman kiritilgan (<https://www.iucnredlist.org/species/198563178/198563231>). Natijada *Moluccella bucharica* tabiiy populyatsiyalarini qayta tiklash va saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, olti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «*Moluccella* L. turkumi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, tadqiqot obyekti va metodlari» nomli birinchi bobi turkum turlarini tadqiq qilish bo'yicha O'zbekiston va xorijda olib borilgan qisqacha tadqiqotlar sharhi hamda tadqiqot obyekti va metodlariga bag'ishlangan.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra (Plants of the World Online, 2022), jahon

florasida *Moluccella* turkumiga oid 8 ta tur uchraydi. Kelib chiqishi Qadimiy Oʻrtayer dengizi hisoblanadigan (Kudryashev, 1939; Kamelin, 2017) turkumning taksonomik tarixida unga yaqin bir nechta turkumlar (*Otostegia*, *Ballota* va b.) boʻlganligi tufayli ayrim chalkashliklar kuzatiladi. Lamioideae kenja oilasining yangilangan filogenetik tasnifi ishlab chiqilgach (2011), *Moluccella* tarkibiga *Otostegia* turkumining Oʻrta Osiyo florasiga mansub turlarining oʻtkazilishi tufayli turkum yana 4 turga boyidi.

Adabiyot manbalari tahliliga koʻra, *Moluccella* turkumiga oid asosiy maʼlumotlar – floristik tadqiqotlar jarayonida toʻplangan, turkumning populyatsiyalari holatini baholashga qaratilgan maqsadli tadqiqotlar Oʻzbekistonda amalga oshirilmagan. Shuningdek, ushbu bobda dissertatsiya ishini bajarilishida qoʻllanilgan tadqiqot metodlari batafsil keltirilgan.

Dissertatsiyaning «***Moluccella* L. turkumi kamyob turlarining ekologik – fitosenotik tavsifi**» nomli ikkinchi bobida oʻrganilgan turlar tavsifi va senopopulyatsiyalarining turli ekologik sharoitlarda hamda fitosenozlarda tarqalishi batafsil yoritilgan.

Tadqiqotlar davomida *M.bucharica* ning 3, *M.fedtschenkoana* turining 9 senopopulyatsiyalari oʻrganilgan. Ularning barchasi janubi-gʻarbiy Pomir-Oloyda, tarkibida 40% gacha gips saqlaydigan ola-jinsli tuproqlarda tarqalgan fitosenozlar tarkibida, dengiz sathidan 835–1450 m balandliklarda oʻsadi. *M.bucharica* ning Shoʻrob, Goʻrxoji va Navbuloq senopopulyatsiyalari Boysuntogʻda, *M.fedtschenkoana* ning Langar, Ishkent1 va Ishkent2 senopopulyatsiyalari janubi-gʻarbiy Hisorda, Chagam, Katta-besmel, Yangiturmush, Sarixalqa, Boybicha va Quruqsoy senotik populyatsiyalari Bobotogʻda qayd qilingan.

Tadqiqot ishining mazkur bobida ayrim oʻrganilgan senopopulyatsiyalarning hozirgi holati adabiyot manbaalari bilan solishtirilgan hamda uzoq muddatli ekologik sharoitlarning oʻzgarishi fonida mazkur fitosenozlar dinamikasining qisqacha tahlili berilgan. Xususan, oʻtgan asrning yetmishinchi yillarida *M.bucharica* shuvoqli-skutellariyali-kleomli assotsiatsiya tarkibida qayd qilingan boʻlsa (Zakirov, 1976), bugungi kunda ushbu assotsiatsiya strukturasi kuchli oʻzgarib shuvoqli-tuyatovonli-bodomchazorga aylangan, turlar tarkibidagi oʻzgarishlar 49% ga yetgan. Ayrim lokalitetlar, jumladan Sayrob yaqinidagi mavrakli-mattiolazor assotsiatsiyasi va uning tarkibidagi *M.bucharica* senopopulyatsiyasi butunlay yoʻq boʻlib ketganligi aniqlandi.

Shuningdek, ilk bor, adabiyot manbalarida ilgari qayd qilinmagan *M.bucharica* ning Navbuloq, *M.fedtschenkoana* ning Langar populyatsiyalari tavsiflanib, ularning tarqalish xaritalari yangi konturlar bilan boyitildi.

Dissertatsiyaning «**Senopopulyatsiyalarning ontogenetik strukturalari va tiplari**» deb nomlangan uchinchi bobida oʻrganilgan turlar senotik populyatsiyalarining ontogenetik strukturalari va tiplari tavsiflangan. 2019-2022 yillar davomida toʻplangan maʼlumotlar tahliliga koʻra, senopopulyatsiyalarning 83% markazlashgan, 8,3% chap va 8,3% oʻng tomonlama spektrli ontogenetik strukturaga ega, ularning 91,6% yetilgan, qolganlari qariyotgan tipga mansubdir (8,3%).

*Moluccella* turkumi o'rganilgan ikki turining barcha senopopulyatsiyalari normal, ammo ko'p xollarda to'liq a'zoli emas. Fitosenozda senopopulyatsiyalarning o'z-o'zini tiklashining faqat urug' orqali sodir bo'lishi va hayot siklining katta qismi ontogenezning o'rta yoshli generativ bosqichiga to'g'ri kelishi ikkala tur uchun ham xarakterlidir. Biologik xususiyatlariga ko'ra bunday ontogenetik strukturali senopopulyatsiyalar aksariyat hollarda markazlashgan spektrga xosdir.

*M.bucharica* senopopulyatsiyalarida ontogenetik guruhlarining o'zaro nisbatiga ko'ra yosh nihollar umumiy ulushning o'rtacha 1,39% ni ( $j=0,09\%$ ,  $im=0,39\%$ ,  $v=0,91\%$ ), generativ fazadagi tuplar 95,5% ( $g_1=18\%$ ,  $g_2=37\%$ ,  $g_3=40,5\%$ ), urug' berish salohiyatini butunlay yo'qotgan qari individlar esa 3% tashkil qiladi. *M.fedtschenkoana* senotik populyatsiyalarida bu ko'rsatkich mos ravishda 2,7%, 96,2% va 1% atrofida shakllanadi.

Generativ fazadagi individlarning mutloq ustunligiga qaramay, populyatsiyalarning yangilanish va tiklanish dinamikasi sekin yoki regressiv xarakterga ega. O'rganilgan turlarning barcha senopopulyatsiyalarida yosh fraksiyaning favqulotda kam ulushi bir qancha omillar, jumladan, urug'lar unuvchanligining pastligi, aksariyat urug'larning (90% gacha) hasharotlar tomonidan zararlanishi, senopopulyatsiyalarning siyrak qoplamli qiyaliklar va soy qirg'oqlarida joylashuvi (mavsumiy yomg'irlar va sel-toshqinlari vaqtida suv eroziyasiga molik hududlar) soy yonbag'irlarining yuzasidagi urug'larni yuvilib ketishi hamda yosh nihollar eliminatsiyasi bilan bog'liq. Chorva mollarining tartibsiz boqilishi ham nimjon nihollarning payhonlanishi va mayin poya va barglarini yeyilishi hisobiga yosh fraksiyani keskin kamayishiga sabab bo'ladi.

Senopopulyatsiyalarda o'ng tomondagi fraksiyasining favqulotda kam ulushi turli omillar bilan bog'liq. Birinchisi, balki eng asosiysi *M.bucharica*, qolaversa *M.fedtschenkoana* ning ham mahalliy aholi tomonidan yirik (asosan generativ yoshdagi) tuplari o'tin sifatida chopib ketilishidir, ikkinchisi qari generativ bosqichdagi tuplarning tabiiy eliminatsiyasi bilan bog'liq.

*M.bucharica* senopopulyatsiyalari Boysun tog'i janubiy hududlarining gipsli tuproqlaridan tashqariga chiqmaydi, turning stenobiontligi populyatsiya chegaralarining kengayishiga to'sqinlik qiladi. Gipslashgan yashash sharoitiga spetsifik moslashuvga qaramay *M.bucharica* senopopulyatsiyalarida individlar zichligi yuqori emas (Sho'rob-0,3; Go'rxoji-0,18; Navbuloq-0,4 tup/1m<sup>2</sup>), tuplar zichligining o'rtacha qiymati 1m<sup>2</sup> da 0,3 tup, ekologik zichligi 1,3 tupdan oshmaydi. *M.fedtschenkoana* senotik populyatsiyalarida idividlar ancha tarqoq o'sadi, o'rganilgan senopopulyatsiyalarda tuplar zichligi 0,12–0,3 tagacha, uning o'rtacha qiymati 0,19 tupni tashkil etadi. Senopopulyatsiyalarda *M.fedtschenkoana* tuplari zichligi Bobotog'ga nisbatan Hisor tog'ida yuqoriroq (Langarda – 0,2; Ishkent1 va Ishkent2 senopulyatsiyalarida 0,3 tup/1m<sup>2</sup>).

Yosh ( $\delta$ ) va samaradorlik ( $\omega$ ) indeksi ko'satkichlari barcha senotik populyatsiyalarda yaqin, xususan, *M.bucharica* da yosh indeksi  $\Delta=0,41-0,56$ , *M.fedtschenkoana* senopopulyatsiyalarida  $\Delta=0,43-0,47$ . Birinchi turning samaradorlik indeksi 0,83 dan ( $\omega=0,71-0,83$ ), ikkinchi turda esa 0,8–0,93

qiymatlaridan oshmaydi. Buning sababi barcha senopopulyatsiyalar o'xshash ingibirlovchi faktorlar ta'sirida va yuqori stressli ekologik sharoitlarda o'sishi bilan bog'liq. L.A. Jivotovskiyning *delta-omega* klassifikatsiyasi bo'yicha (2001), o'rganilgan markazlashgan ontogenetik strukturali senotik populyatsiyalar yetilgan tipga mansubdir.

Yosh generativ tuplarning ustunligi tufayli (g1 yoshdagi individlar umumiy ulushning 44,8% tashkil etadi) *M.fedtschenkoana* ning o'rganilgan senopopulyatsiyalari orasida Ishkent2 senopopulyatsiyasi chap tomonlama ontogenetik strukturaga xos. Katta-besmel, Yangiturmush, Sarixalqa va Boybicha senotik populyatsiyalari singari *M.fedtschenkoana* ning ushbu senopopulyatsiyasi generativdan keyingi bosqichdagi individlarning umuman qayd qilinmaganligi sababli nisbatan yosh hisoblanadi. Yosh va samaradorlik klassifikatsiyasiga ko'ra ushbu senopopulyatsiya yetilgan tipga mansubdir.

*M.bucharica* Go'rxoji senopopulyatsiyasining ontogenetik spektri o'ng tomonlama, bir cho'qqili va cho'qqisi qari generativ tuplarga (g3) to'g'ri keladigan ontogenetik strukturaga xos. Ushbu senotik populyatsiya shuvoqzor jamoasi tarkibida qayd etilgan, 204 tupdan iborat. Dala tadqiqotlari davomida immatur va yuvenil bosqichdagi nihollar qayd etilmaganligi, generativ davrgacha bo'lgan individlardan faqat 2 tup voyaga yetgan virginil yoshdagi tuplar ro'yxatga olinganligi senopopulyatsiyaning inqiroz holatidagiligi ko'rsatadi. Go'rxoji qishlog'i yaqinidagi senotik populyatsiya yil bo'yi chorva mollari tartibsiz boqiladigan, poyasi xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun yig'ib olinadigan hududda o'sadi. Yuqori antropogen bosim sababli *M. bucharica* ning mazkur lokal populyatsiyasi juda zaif bo'lib, yo'qolish xavfi eng yuqoridir. Ontogenetik strukturasi tahlili qari generativ tuplar (g3) sonining g1 va g2 tuplarga nisbatan karrali ko'p ulushga egaligini (126 tup yoki 61,7%) ko'rsatdi.

Yosh va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlillari senopopulyatsiyani qariyotgan tipga mansubligini ko'rsatdi.


Tiklanish indeksining passiv trendi ( $I_t=0.01-0.08$ ) kelajakda populyatsiyalar soni qisqarishining yana bir xavotirli indikatori hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «***Moluccella* L. turkumi kamyob turlari senopopulyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash**» nomli to'rtinchi bobida *M.bucharica* va *M.fedtschenkoana* turlari senopopulyatsiyalarining zamonaviy holati organizm va populyatsiya belgilari asosida baholangan.

*M.bucharica* organizm va populyatsiya belgilarining yuqori ko'rsatkichlari Boysuntog'ning janubiy qismida, har-xil o'tli-bodomchazor assotsiatsiyasi tarkibidagi Navbuloq senopopulyatsiyasida qayd qilingan. Ushbu senopopulyatsiyada tuplarning biomassasi, generativ novdalar og'irligi va soni, o'simlikning bo'yi, potensial urug' mahsuldorligi kabi organizm, ekologik zichlik va yosh fraksiyaning ulushi kabi populyatsiya belgilari maksimal ko'rsatkichlarga ega; kaudeks diametri, tuplar zichligi, tuplarning qoplanish darajasi kabi organizm va populyatsiya belgilari esa yuqori qiymatlarga yaqindir.

Tanlab olingan belgilar qiymatining yig'indisiga ko'ra 83% belgilari 4-5 balli ko'rsatkichni qayd etgan mazkur senopopulyatsiyada *M.bucharica* ekologik

optimumiga yaqinlashadi (1-rasm). Navbuloq populyatsiyasi unga yaqin bo‘lgan Past-Machay va Go‘rxoji qishloqlaridan bir necha kilometr uzoqlikda, avtomobil yo‘llaridan ancha ichkarida joylashgan. Antropogen faollik bu yerda boshqa populyatsiyalarga qaraganda nisbatan kam, turning rivojlanishi uchun ekologik-fitotsenotik sharoit esa nisbatan qulayroqdir.



**1-rasm.** *M. bucharica* senopopulyatsiyalari holatini balli baholash:

1. Tupning biomassasi, gr; 2. Generativ novdalar og‘irligi, gr; 3. Generativ novdalar soni; 4. O‘simlik bo‘yi, sm; 5. Kaudeks diametri, sm; 6. Potensial urug‘ mahsuldorligi (PUM); 7. Haqiqiy urug‘ mahsuldorligi (HUM); 8. Tuplar zichligi 1m<sup>2</sup>, dona; 9. Tuplarning ekologik zichligi 1m<sup>2</sup>, dona; 10. Tuplarning qoplanish darajasi (%); 11. Generativgacha bo‘lgan bosqichdagi tuplarning ulushi (%); 12. Generativ tuplarning ulushi (%).

Belgilar yig‘indisining past qiymatlari aniqlangan Go‘rxoji senopopulyatsiyasi aholi punktiga juda yaqin joylashgan. Tartibsiz chorva boqilishi hisobiga payhonlanish darajasi yuqori bo‘lgan mazkur hududda o‘svuchi individlar yuqori organizm ko‘rsatkichlariga ega bo‘la olmaydi. *M.bucharica* ning barcha senopopulyatsiyalarida proektiv qoplanish darajasi yuqori emas, bunday sharoitda individlarning yuqori organizm va populyatsiya ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi tashqi cheklovchi omillarning ta‘sir darajasiga bog‘liq. Chorva mollari yetib bora olmaydigan qiyaliklarda o‘sayotgan ayrim tuplar 5 balli organizm ko‘rsatkichlariga mos kelishi, chorva o‘tlaydigan joyda o‘sadigan tuplar belgilari eng past ballga egaligi Go‘rxoji senopopulyatsiyasining rivojlanishida chorvaning tizimsiz boqilishi eng katta cheklovchi omil bo‘layotganligini ko‘rsatdi.

*M.fedtschenkoana* ning 9 ta senopopulyatsiyalaridan faqat shuvoqzor va efemerli-efemeroidli-pistazor jamoalari tarkibidagi Langar va Chagam senopopulyatsiyalari organizm va populyatsiya belgilari qiymatining yig‘indisiga ko‘ra turning ekologik optimumiga yaqin hisoblanadi (jadval). Ushbu senopopulyatsiyalarda tanlab olingan organizm belgilarining 85,7% da maksimal ko‘rsatkichlar qayd qilingan. Yaylovlarga bo‘lgan bosimning pastligi, o‘rmon xo‘jaligi nazoratidagi hududda joylashuv va qulay eko-fitotsenotik sharoit individlarning yuqori belgilar ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi uchun imkon yaratadi. Ayrim lokalitetlarda iqlim anomaliyalari, tuproq va suv eroziyasi, chorva tomonidan payhonlanish hamda inson faktori individlar eliminatsiyasiga olib keladi, shu

sababli, Katta-besmel, Yangiturmush, Sarixalqa, Ishkent1 senopopulyatsiyalari organizm va populyatsiya belgilarining quyi, Ishkent2 va Boybicha esa eng past balli qiymatlariga ega.

## Jadval

### *M.fedtschenkoana* belgilar qiymatini balli baholash shkalasi

№	Belgilar	Ball				
		I	II	III	IV	V
1	Tupning biomassasi, gr	160-402	403-645	646-888	889-1131	1132-1370
2	Generativ novdalar og'irligi, gr	25-59.0	59.1-93.1	93.2-127.2	127.3-161.3	161.4-195
3	Generativ novdalar soni	9-38.4	38.5-67.9	68-97.4	97.5-126.9	127-156
4	O'simlik bo'yi, sm	50-62	63-75	76-88	89-101	102-110
5	Kaudekslar diametri, sm	3-4.40	4.41-5.81	5.82-7.22	7.23-8.63	8.64-10
6	PUM	159-313.4	313.5-467.9	468-622.4	622.5-776.9	777-931.4
7	HUM	81.1-133.8	133.9-186.6	186.7-239.4	239.5-292.9	293-344.6
8	Tuplar zichligi 1m <sup>2</sup> , dona	0.05-0.196	0.197-0.273	0.274-0.35	0.351-0.427	0.428-0.504
9	Tuplarning ekologik zichligi	1.0-1.22	1.23-1.45	1.46-1.68	1.69-1.91	1.92-2.1
10	TQD (%)	0.1-0.5	0.51-0.91	0.92-1.32	1.33-1.73	1.74-2.14
11	Generativgacha bo'lgan tuplarning ulushi (%)	0.0-1.22	1.23-2.45	2.46-3.68	3.69-4.91	4.92-6.14
12	Generativ tuplarning ulushi (%)	88.2-90.56	90.57-92.93	92.94-95.3	95.31-97.67	97.68-100

O'rganilgan turlar senopopulyatsiyalarining vitalitet holati tahliliga ko'ra, senopopulyatsiyalarda o'sish sharoitlarining yomonlashishi yoki stressli jarayonlarning ortishi vitalitet qiymatining kamayishiga sabab bo'ladi. Senopopulyatsiyalarni organizm va populyatsiya belgilari asosida balli baholash natijalari ularning vitalitet qiymatining kritik mezonlariga mos keldi. Past balli belgilar qiymatiga ega senopopulyatsiyalar o'z navbatida depressiyali vitalitet holatidadir. Navbuloq, Langar va Chagam kabi senopopulyatsiyalar nisbatan barqaror strukturaga ega bo'lsada, umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha hech bir senotik populyatsiya farovon yoki yuqori vitalitet holatiga ega emas.

Dissertatsiyaning «*Moluccella L. turkumi kamyob turlari potensial tarqalishini bioiqlimiy modellashtirish*» deb nomlangan beshinchi bobining birinchi qismida o'rganilgan turlar senopopulyatsiyalarining lokalitetlarida asosiy iqlim omillarining o'zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Janubiy O'zbekiston yurtimizning iqlim o'zgarishi eng ko'p sezilayotgan hududlaridan biridir. Iqlim ma'lumotlarining ochiq bazasi (NASA Power) va Boysun M-II meteostantsiyasi ma'lumotlari (1982–2020) tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'p yillik o'rtacha, o'rtacha maksimal, o'rtacha minimal, mutlaq maksimal-minimal harorat so'nggi 39 yil ichida

sezilarli darajada ko‘tarilgan va jarayon davom etmoqda. Tadqiqot turlari o‘sadigan yarim qurg‘oqchil mintaqada issiq yarim yillikda (may-oktyabr) yog‘ingarchilik miqdori deyarli nol qiymatga teng va namlik tanqisligi ortib, umumiy namlik darajasi pasayishda davom etmoqda, harorat ( $K_{o'zg} = 19,3-53,76\%$  ( $r=0.21$ ,  $r=0.61$ )) va yog‘ingarchilikning ( $K_{o'zg} = 59.8\%$  ( $r=0.37$ )) o‘zgarish amplitudasidagi sezilarli tebranishlar buni tasdiqlaydi.

Bobning ikkinchi qismida *M.bucharica* va *M.fedtschenkoana* ning potensial tarqalish areallarini turli davrlarda (So‘ngi Oraliq Muzlik, antropogen sanoat davri, hozirgi davr, yaqin va uzoq kelajak) modellashtirish natijalari keltirilgan.

Tur ekonishasining “qaynoq” nuqtalari janubi-g‘arbiy Pomir-Oloy tizmasiga to‘g‘ri keladi. Modellashtirish natijalari *So‘ngi Oraliq Muzlik* davrida ham turning adabiyotlardagi kabi Pomir-Oloy areal sinfiga xos ekanligini tasdiqladi. *M.fedtschenkoana* arealining ahamiyatli diapazonlari bu davrda asosan Pomir-Oloyning hozirgi janubiy O‘zbekiston, janubi-g‘arbiy Tojikiston va shimoli-sharqiy Avg‘oniston hududlariga to‘g‘ri keluvchi qismlarida nomoyon bo‘ldi.

Model xaritasiga ko‘ra, Eron g‘arbidagi Zagros tog‘larining ola-jinsli tuproqlari *Moluccella* turkumining O‘rta Osiyo turlarini Yevropa va Afrika turlari bilan bog‘lovchi muhim nuqta bo‘lishi mumkin, chunki bu hududlar bioiqlimiy modellashtirilgan barcha turlarda yuqori ahamiyatli diapazon sifatida tasvirlangan. Turlar ekonishalarining shakllanishida eng qurg‘oqchil chorakning o‘rtacha harorati (bio-9), eng issiq chorakdagi yog‘ingarchilik miqdori (bio-18) va eng qurg‘oqchil oyning yog‘inlari (bio-14) miqdori kabi iqlim o‘zgaruvchilarining hissalarini yuqori.


Insoniyatning iqlim o‘zgarishiga ta’siri kuchaya boshlagan 1970-2000 yillar iqlim ma’lumotlari kiritilganida Maxent turlar ekonishasini faqat Pomir-Oloy tog‘larining janubiy-g‘arb tizmalariga modellashtirdi.

Hozirgi davr modeli xaritalari bioiqlim o‘zgaruvchilariga edafik-topografik xususiyatlarni qo‘shish orqali yanada aniq ifodalanishiga erishilgan va turlarning mavjud chegaralariga juda yaqin keladi (2-rasm).

*M.bucharica* ning hozirgi davr modelida bio\_3 (izotermallik: o‘rtacha yillik havo haroratining o‘rtacha yillik tebranish haroratining amplitudasiga nisbati) iqlim o‘zgaruvchisining (PI=40.2) nisbiy hissasi yuqori. *Current* modeliga ko‘ra, *M.fedtschenkona* tarqalishi uchun yuqori darajada ahamiyatli (0,5-0,98) maydonlar Pomir-Oloyning Bobotog‘ va Oqtog‘ida, Kofirnixon daryosi xavzasining ola-jinsli qatlamlariga to‘g‘ri keldi.

MIROC6 ning kelajak iqlim stsenariylari asosidagi bioiqlim modellari (AUC=0,995) yaqin (2021-2040) va olis kelajakda (2081-2100) o‘rganilgan turlar tarqalishi uchun o‘rta va yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan yangi hududlar paydo bo‘lishi, turlar migratsiyasi tufayli tarqalish maydonlari chegaralarining o‘zgarib borishi, *M.fedtschenkoana* uchun yaqin kelajakda shimoli-sharqda paydo bo‘ladigan kam ahamiyatli diapazonlar asr so‘ngida yuqori ahamiyatli hududlarga aylanishi, *M.bucharica* uchun qulay janubiy lokatsiyalarning qisqarib borishi bilan tavsiflanadi.





**2-rasm.** *M.bucharica* (A) va *M.fedtschenkoana* (B) turlarining hozirgi davrda potensial tarqalish maydonlarining model xaritasi

Dissertatsiyaning «*Moluccella* L. turkumi kamyob turlari populyatsiyalarining muhofaza choralari» deb nomlangan oltinchi bobning birinchi qismida kamyob turlar populyatsiyalariga xavf solayotgan asosiy omillar batafsil yoritib berilgan. *M.bucharica* va *M.fedtschenkoana* populyatsiyalari tarqalgan lokalitetlar qo'riqxonasi yoki muhofaza qilinadigan hududlar tarkibiga kirmaydi. Mahalliy aholi tadqiqot hududlaridan yaylovlar sifatida yil davomida tartibsiz foydalanadi. Chorvaning o'tlash davrida asosan yosh yillik novdalar va generativgacha bo'lgan bosqichdagi individlar, ayniqsa eng ko'p zarar ko'radi. Bu senopopulyatsiyalarning ontogenetik strukturasi salbiy ta'sir etib, populyatsiyalarning o'z-o'zini tiklash jarayonini keskin susaytiradi. Payhonlanish, xo'jalik maqsadlarida yirik tuplarning kesilishi, qishloq xo'jaligi va lalmi yerlarining ortishi, yo'l qurilishi va aholi tomorqalarining kengayishi hisobiga senopopulyatsiyalar chegaralarining keskin qisqarishi populyatsiyalarga eng ko'p xavf solayotgan omillardir. *Moluccella* turkumi turlari populyatsiyalariga tabiiy



omillarning ta'siri kuchayishi ham kuzatilmoqda. Hasharotlarning urug'larga zarar keltirishi ayrim populyatsiyalarda (Sho'rob, Quruqsoy) 90% gacha yetadi, global iqlim o'zgarishi fonida yuz berayotgan qurg'oqchilikning ortishi va haroratning keskin tebranishi *Moluccella* individlarining reproduktiv jarayonlariga ta'sir etib, gullash fazalari vaqtlarining o'zgarishiga, urug'larning to'liq yetilmasligiga, namlik tanqisligi oqibatida gullarning erta to'kilishiga, yillik (generativ) novdalarning sovuq urushi va boshqa stressli jarayonlarga sabab bo'lmoqda. Populyatsiyalarga ta'sir etuvchi omillarning xavf darajasini baholash uchun balli shkala ishlab chiqildi. Populyatsiyalarni shkala mezonlari asosida tasniflash natijalarga ko'ra 83% lokal populyatsiyalar, jumladan, *M.bucharica* ning Sho'rob populyatsiyasi (76 ball) xavf darajasining juda yuqori, turning qolgan barcha lokal populyatsiyalari (Go'rxoji 73 ball, Navbuloq 63 ball) yuqori, *M.fedtschenkoana* ning Ishkent1 va 2 (63-65 ball), Sarixalqa (60 ball), Quruqsoy (56 ball), Boybicha (55 ball) va Katta-besmel (51 ball) kabi populyatsiyalari ham yuqori cheklovchi omillar ta'sirida bo'lgan sharoitlarda o'sishi aniqlandi. Turlarni omon qolishini yaxshilash uchun sun'iy boshqaruv zarur va inson aralashuvisiz *Moluccella* turlarining populyatsiyalarini barqarorlashtirish bugungi kunda imkonsiz. Populyatsiyalarni saqlab qolish uchun Hisor tizmasining janubi-g'arbiy hududlarini va Bobotog'ning shimoliy Surxondaryoda yastangan olajins tuproqli mintaqalarini muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar qatoriga kiritish tavsiya etiladi.

Oltinchi bobning ikkinchi qismi o'rganilgan turlarning muhofazaga muhtojlik darajasini TMQXI Qizil Ro'yxatining toifa va mezonlari asosida baholashga bag'ishlangan. Baholash natijalariga ko'ra *M.fedtschenkoana* yo'q bo'lib ketish arafasida (EN) toifasining B1 b(ii,iii,iv)+2b(ii,iii,iv)+C1 2a1(i,ii) mezonlariga va *M.bucharica* butunlay yo'q bo'lib ketish xavfi ostida (CR) maqomining B1ab(i,ii,iii,iv,v)+2ab(i,ii,iii,iv,v) mezonlariga mos keldi. Baholash natijalari TMQXI xalqaro ekspertlar guruhi tomonidan ko'rib chiqilib, ularning xulosasiga ko'ra *M.bucharica* Xalqaro Qizil Ro'yxatga CR maqomi bilan rasman kiritildi.

Oltinchi bobning uchunchi qismida *M.bucharica* ni *in situ* va *ex-situ* sharoitida saqlash tadbirlari haqida batafsil bayon etilgan. Laboratoriya tajribalarida *M.bucharica* urug'lari 48 xil kombinatsiya va 96 takrorda ekilganida 0,08%, ya'ni juda past unuvchanlik ko'rsatkichi qayd etildi. Urug'larning morfo-anotomik tahlillari ularning endospermsiz yoki kam endosperimli ekanligini ko'rsatdi. Toshkent botanika bog'ida qalamchalaridan vegetativ ko'paytirish issiqxona va ochiq dala sharoitida o'tkazildi. Ochiq dala sharoitidagi tajribalarda qalamchalar ko'karishi kuzatilmadi. Issiqxona sharoitidagi 80% qalamchalar 30 kunda kallus to'plamini hosil qildi, 20% umuman ko'karmadi, 8-10 foiz qalamchalar (Ribav-ekstra stimulyatori bilan ishlov berilgan) 0,1-3 sm ildiz hosil qilib vegetatsiya so'ngigacha o'sishda davom etdi. Ildiz olgan qalamchalar, vegetatsiya davri yakunlangandan keyin yanvar oyida turning Sho'rob populyatsiyasiga translokatsiya qilindi. Tajribalar urig'idan yoki qalamchalaridan *ex-situ* sharoitida ko'paytirilgan ko'chatlarni tabiiy sharoitga ko'chirish populyatsiyalarni to'ldirishning eng maqbul yechimi ekanligini ko'rsatdi.

## XULOSALAR

«O‘zbekistonda *Moluccella* L. (*Lamiaceae*) turkumi kamyob turlari populyatsiyalarining zamonaviy holati» mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O‘zbekistonda *Moluccella* L. turkumi turlarining aksariyati janubi-g‘arbiy Pomir-Oloyda tarqalgan (*M.olgae* bundan mustasno, tur Pomir-Oloydan tashqari g‘arbiy Tyan-Shanda ham tarqalgan). *M.bucharica* va *M.fedtschenkoana* turlarining o‘simliklar qoplaminig olajinsli va gipsofit tiplariga mansub turli fitosenozlari tarkibida tarqalgan 12 senopopulyatsiyalari tavsiflandi.

2. *M.bucharica* ning Go‘rxoji aholi punktiga yaqin o‘sovchi senopopulyatsiyasi o‘ng tomonlama, *M.fedtschenkoana* ning Hisor tog‘ida tarqalgan senopopulyatsiyasi (Ishkent2) chap tomonlama ontogenetik spektrga ega. Qolgan barcha senotik populyatsiyalar markazlashgan ontogenetik strukturaga xos. Generativ tuplarning mutlaq ustunligiga qaramay, populyatsiyalarning yangilanish dinamikasi regressiv xarakterga ega.

3. *M.bucharica* ning qariyotgan tipga mansub Go‘rxoji senopopulyatsiyasidan tashqari barcha senopopulyatsiyalar yetilgan (91.7%), tipga mansubligi aniqlandi. Tiklanish indeksining passiv trendi ( $I_t=0.01-0.08$ ) kelajakda populyatsiyalar sonining qisqarishining xavotirli indikatorini hisoblanadi.

4. Organizm va populyatsion belgilarning tahlili o‘rganilgan senopopulyatsiyalarning birortasida ham ularning maksimal qiymatlari qayd etilmaganini ko‘rsatdi. Tanlab olingan belgilar qiymatining yig‘indisiga ko‘ra, *M.bucharica* ning Navbuloq va *M.fedtschenkoana* ning Langar va Chagam senopopulyatsiyalari turning ekologik optimumiga yaqindir. O‘rganilgan senopopulyatsiyalarning 67% depressiv vitalitet holatiga mansub sifatida baholandi.

5. O‘rganilgan turlar tarqalishining bioiklimiy tahlillari yaqin (2021–2040) va olis kelajakda (2081–2100) o‘rganilgan turlar tarqalishi uchun o‘rta va yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan yangi hududlar paydo bo‘lishini ko‘rsatdi. *M.fedtschenkoana* uchun yaqin kelajakda shimoli-sharqda paydo bo‘ladigan kam ahamiyatli diapazonlar asr so‘ngida katta ehtimol bilan yaroqli hududlarga aylanadi. Yaratilgan model *M.bucharica* arealining janubiy chegaralarini qisqarib borishini ko‘rsatdi.

6. Tabiiy sharoitda o‘rganilgan turlar senopopulyatsiyalarining o‘z-o‘zini tiklashi faqat urug‘lari orqali ko‘payishi hisobiga amalga oshadi. *M.bucharica* senopopulyatsiyalarida generativ davrgacha bo‘lgan fraktsiyaning yo‘qligi yoki ularning o‘ta kam ulushi, urug‘lar unuvchanligi pastligining (0.08%) natijasidir. Ilk bor Toshkent botanika bog‘i sharoitida turning qalamchalar yordamida ko‘paytirishga muvaffaq bo‘lindi, vegetativ yo‘l bilan olingan mazkur ko‘chatlar turning zaif populyatsiyalarini to‘ldirish uchun xizmat qilishi mumkin.

7. Senotik populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash asosida *M.fedtschenkoana* O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritish uchun tavsiya etildi. O‘rganilgan turlar TMQXI mezonlari bo‘yicha baholandi va *M. bucharica* butunlay yo‘qolib ketish arafasidagi tur ((CR) B1ab(i,ii,iii,iv,v)+2ab(i,ii,iii,iv,v)) sifatida xalqaro Qizil kitobga kiritildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.В.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ**

---

**ИНСТИТУТ БОТАНИКИ**

**ХАБИБУЛЛАЕВ БЕХРУЗ ШЕРБОЕВИЧ**

**СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПОПУЛЯЦИЙ РЕДКИХ ВИДОВ РОДА  
*MOLUSCELLA* L. (LAMIACEAE) В УЗБЕКИСТАНЕ**

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022.3.PhD/B438.**

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.botany.uz](http://www.botany.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([ziyonet.uz](http://ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Шомуродов Хабибулло Файзуллоевич**  
доктор биологических наук, профессор

**Официальные опоненты:**

**Хасанов Фуркат Орунбаевич**  
доктор биологических наук, профессор

**Нигматуллаев Алимжон Магмурович**  
кандидат биологических наук

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится “5” мая 2023 года в 15<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники (Адрес: 100125, г.Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-79-38, e-mail: [botany@academy.uz](mailto:botany@academy.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрировано за №51). Адрес: 100125, г.Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан “17” апрель 2023 года.  
(реестр протокола рассылки №2 от “17” апрель 2023 года)



**К.Ш. Тожибаев**

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., академик

**У.Х.Кодиров**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, PhD, старший научный сотрудник

**Ф.И.Каримов**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., ведущий научный сотрудник

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Проблема сохранения биологического разнообразия становится все более актуальной в контексте глобального изменения климата и возросшего антропогенного воздействия на природные экосистемы. Результаты человеческой деятельности оказывают непосредственное влияние на все компоненты биоразнообразия в каждой точке планеты, включая и растительный мир. В результате сотни видов растений и их растительные сообщества, а также их местообитания всё больше нуждаются в охране. В 2014 году более 19 тысяч видов растений были включены в Международный Красный список, в то время как к 2022 году число видов, находящихся под угрозой, превысило 60 тысяч. Исходя из этого, на сегодняшний день важное научное и практическое значение имеет оценка состояния уязвимых популяций редких видов, выявление трансформирующих и ингибирующих факторов, а также дальнейшее совершенствование аспектов их устранения.

В последние годы, во многих странах мира выявление масштаба изменений в экосистемах, оценка существующих и ожидаемых угроз, а также разработка стратегии охраны популяций уязвимых видов осуществляется путем оценки современного состояния ценологических популяций. При этом на основе выявления фитоценологической приуроченности отдельных видов, изучения онтогенетических структур и типов их ценопопуляций, установления экологических оптимумов на основе оценки организменных и популяционных признаков, а также выявления тревожных индикаторов исходя из виталитетного состояния ценопопуляций разрабатываются оптимальные меры охраны популяций угражаемых видов.

В Узбекистане распространены 4 вида - рода *Moluccella* L., 3 из них (*Moluccella bucharica*, *M.fedtschenkoana*, *M.sogdiana*) - являются эндемиками низкогорий юго-западного Памиро-Алая. В результате усиления антропогенных прессингов популяции редких видов рода *Moluccella* сокращаются.

В последние годы, в республике проводятся важные практические мероприятия, направленные на рациональное использование и сохранение существующих растительных ресурсов на основе международных принципов. В результате реализуемых программных мер в этом направлении были достигнуты определенные достижения, в частности, Узбекистан присоединился к Конвенции ООН "О биологическом разнообразии", разработал свою национальную стратегию по сохранению биоразнообразия на 2019-2028 годы и меры по восстановлению деградированных экосистем.

